

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

BADIY HUNARMANDCHILIK BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR

HEМАТЕРИАЛЬНОЕ КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ, СВЯЗАННОЕ С
ХУДОЖЕСТВЕННЫМ МАСТЕРСТВОМ

INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE RELATED TO ARTISTIC CRAFTSMANSHIP

Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li¹¹Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan nomoddiy madaniy meros turlari kulolchilik, kashtado'zlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, do'ppido'zlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik tarixiga va O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini asrabqolishi hamda transformatsion jarayonlari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются виды нематериального культурного наследия, связанные с декоративно-прикладным искусством, в истории гончарного дела, вышивки, ювелирного дела, ковроделия, ножеделия, живописи, шляпного дела, ювелирного дела, резьбы по дереву, резьбы по дереву и о сохранении историко-культурных ценностей и уникальных традиций народа Узбекистана, передающихся из поколения в поколение, а также процессы трансформации.

Abstract

In this article, the types of intangible cultural heritage related to arts and crafts are discussed in the history of pottery, embroidery, jewelry, goldsmithing, carpet making, knife making, painting, hat making, jewelry making, wood carving, wood carving, and the preservation of historical and cultural values and unique traditions of the people of Uzbekistan, passed down from generation to generation, as well as the transformation processes are discussed.

Kalit so'zlar: Hunarmandchilik, kulollik, kashtado'zlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, do'ppido'zlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, anorgul, qalampir, tole, qanoti murg', qo'chqaroq (qo'chqor shohi), guli afishi, sada, gultojixo'roz, mexroba, zar pechak, bulbulzor, tumorcha, oshpichoq, optovagul, choydosh, chetangul, tuyabo'yin, guzaka, kaptar qanot, oshiqcha, rishtagul, pechak o't, sanami, pista, barg, zanjira, osma gul, koshin gul, chor yaproq, guli gajak

Ключевые слова: Ремесла, гончарное дело, вышивка, ювелирное дело, ювелирное дело, ковроткачество, изготовление ножей, роспись, шляпное дело, украшения, резьба по дереву, резьба, аноргул, перец, толе, крылатая птица, овца, чагарок, цветок афиши, сада, гультохороз, мехроба, зар пехак, соловей, амулет, повар, оптовагул, чайная посуда, четангуль, туюбойин, гузака, голубиное крыло, неразлучник, риштагуль, финик, фисташка, лист, цепочка, висячий цветок, цветок кошин, лист чор, цветочный гаджак.

Key words: Crafts, pottery, embroidery, jewelry, goldsmithing, carpet making, knife making, painting, hat making, jewelry, wood carving, carving, anorgul, pepper, tole, winged bird, chagarok (ram horn), flower afishi, sada, gultokhoroz, mekhroba, zar pehak, nightingale, amulet, cook, optovagul, tea dish, chetangul, tuyaboyin, guzaka, pigeon wing, lovebird, rishtagul, date, pistachio, leaf, chain, hanging flower, koshin flower, chor leaf, flower gajak.

KIRISH

Jahon xalqlarining milliy moddiy hamda nomoddiy madaniyati bugungi globalashuv va integratsiyalashuv jarayonlarida tobora unifikatsiyalashib, umuminsoniy xarakterga ega bo'lib bormoqda. Bugungi kunda xalqlarning an'anaviy nomoddiy madaniyatning rang-barang etnik va lokal xususiyatlarini o'zida aks ettirgan va ularning madaniy merosini mental xususiyatlarini saqlab qolganligini ilmiy jihatdan o'rganish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Bu nomoddiy madaniyat yo'nalishdagi tadqiqotlar turli ko'rinishga ega bo'lib, asosan, etnomadaniy genofondni saqlab qolish muammolari, etnomadaniy o'zlikni anglashning tarixiy, etnologik, etnoslar turmush tarzidagi an'analar hamda zamonaviy yangilanishlarni namoyon bo'lishi singari qator masalalarni o'rganish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Yurtimizda mustaqillik sharofati bilan urf-odatlar, an'analar hamda milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni ilmiy jihatdan tahlil etishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bugungi kunda davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy rivoji, jamiyat barqarorligini ta'minlashda nomoddiy madaniy merosning ahamiyati beqiyosdir. Ma'naviyat imkoniyatlari darajasi qancha yuqori bo'lsa, kelajakdagi amaliy ishlar ko'lami ham shuncha samarali bo'ladi. Bu borada "...Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi

TARIX

ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini asrab qolishga muvaffaq bo'ldi"[1. 5-b]. Hunarmandchilik — milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni sifatida juda qadimdan mavjud. U aksariyat hollarda nisbatan kamroq rivojlangan mamlakatlarning xalq xo'jaligida muhim o'rin egallaydi. [2]

Hunarmandchilikning asosiy belgilari oddiy mehnat qurollari yordamida biror ishning bajarilishi va ishlab chiqarishning yakka tartibligidadir.[3. 5-b]

Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.[4]

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resursning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik va boshqa turlari rivojlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi negizida hunarmandchilik tarixiy, arxeologik, etnografik, san'at nuqtai-nazardan o'rganilgan. Shu bilan birgalikda hunarmandchilik haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalar, arxeologik va etnografik materiallar, arxiv hujjatlari hamda ko'plab ilmiy adabiyotlar, maqolalar, hisobotlarda aks etgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, badiiy hunarmandchilik san'ati har bir xalq maishiy hayotining tarkibiy qismi sifatida asrlar osha shakllanib, milliy xususiyatlarni o'zida saqlab kelmoqda. Ammo bugungi kunimizgacha yetib kelgan hunarmandchilik sohalar o'zining ishlab chiqarish uslubini va tasviriy san'atini saqlab qolgan bo'lsa-da, mazmunan va shakl jihatdan o'zgarishlar kuzatilishi xususida arxeologiya va amaliy san'at yo'nalishiga oid adabiyotlardan ma'lumotlar olish mumkin.

Hunarmandchilik tarixi tarixshunosligining umumiy manzarasi fonida ma'lumotlar aks etgan manba va adabiyotlarni yaratilgan davri, mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatish mumkin. Tadqiqot tarixshunosligining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'lka aholisi o'zining qadimiy tarixi, madaniyati, rang-barang etnik tarkibi, boy etnografiyasi bilan tadqiqotchilarning e'tiborini doimo o'ziga tortgan. Arxeologik va etnografik manbalar tarixiy voqelikni aks ettiruvchi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, arxeologik kashfiyotlar tufayli aniqlangan tadqiqot natijalarini chop ettirgan I.B. Bentovich, I.K. Axrorov, R.X. Suleymonov, M.X. Isomiddinov, M.X. Xasanov[5.] kabi tadqiqotchilar asarlaridan mavzuga oid ilmiy ma'lumotlarni olish mumkin.

Arxeologik kashfiyotlar tufayli aniqlangan – islomgacha bo'lgan obidalarda, jumladan, ganchdan va sopoldan yasalgan buyumlarda, metall va oltin bezaklarda, devoriy san'at namunalarida tasvirlangan jozibador obrazlarda butun bir maishiy turmush sohasi (ayrim marosimlar va hayot tasviri berilgan pannolarda) namoyon bo'lgan bo'lsa, undan keyin barcha binokorlik an'anaviy hunarmandchilik san'atida mazmun va shakl deyarli o'zgargan. Bunda geometrik va o'simliklar shaklidagi bezaklar asosiy o'rin tutadi. Bunday ma'lumotlarni Xolmuratov.B., Ahmedova O., Mamasoliyeva Sh.L. [6.] lar kabi etnograf, san'atshunoslarning ilmiy-uslubiy tadqiqotlaridan foydalanilgan holda yoritib berildi.

Badiiy hunarmandchilik san'ati ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyat kasb etuvchi badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolarini badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga qamrab oladi, bu narsalar kundalik turmushda o'z o'rnida qo'llaniladi, qolaversa, insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib o'z ko'inishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ijobiy ta'sir qiladi, ya'ni amaliy va estetik qimmatini bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish qilish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi an'anaviy hunarmandchilik san'atida estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalar sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar an'anaviy hunarmandchilik san'atida oddiy, ro'zg'orbop buyumlarga bezak berilsa-da, murakkab, chiroyli shaklga keltirib ularning har ikkisiga ham estetik xususiyat bag'ishlanadi sopollarning nafisligiga erishilishini ta'kidlaydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ona Vatanimiz hududidan mezolit davriga oid qadimiy san'at yodgorliklari topilganidan xabarimiz bor. Neolit davri sopol idishlari qazib olingani va o'rganilganini ham bilamiz: ular qo'lda yasalgan, chiziqcha, nuqta va ilonizi tasvirlar qo'l bilan chizib bezatilgan. Farg'ona vodiysidan miloddan avvalgi 3-mingyillikning oxiri – 2-mingyillikka oid jez davri quyma badiiy buyumlari (jez va kumush buyumlar xazinasini) qazib olingan. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, sopol idishlarga keyinchalik handasaviy bezaklar ishlana boshlagan. Farg'ona vodiysi, Surxondaryo o'troq dehqon aholisi idishlari shu davrda uchburchak, rombsimon yoki kataksimon qizil-qora chiziqchalar bilan bezatilgan; Amudaryo bo'yi vohasidagi qazishmalar davomida aniqlangan buyumlarda ham shunday tasvirlar jigarrang, oq zaminga tushirilgan. Ilk o'rta asr (V—VIII asrlar) an'anaviy hunarmandchilik san'ati Sug'd, Tohariston, Xorazm va Farg'onadagi davlatlar madaniyati bir-biri bilan bog'liq ravishda rivojlanganni tasdiqlaydi. Ilmiy adabiyotlarda yoritib beriladiki, Pop tumani Munchoqtepa manzilgohidan IV—VI asrlarga oid kiyimlarning go'zal namunalari qadimiy farg'onaliklar kiyimi ancha murakkab qilib tikilganligini namoyon etadi. Samarqand viloyatidan qadimiy maxsi, Farg'ona vodiysidan qolip va charm kesadigan maxsus pichoq topilishi V-VI asrlarda bu oyoq kiyimining urf bo'lganini bildiradi. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo va Qashqadaryo pichoqchilikning qadimiy markazlari bo'lgan. Farg'ona vodiysida Qo'qon, Chust, Shahrixon, Qorsuv maktablari vujudga kelgan.[7.42-b] Pichoqlar faqat uy-ro'zg'or buyumi emas, balki harbiy qurol, hunarmandlik asbobi sifatida qo'llanib kelingan. VI—XII asrlarga oid pichoq namunalari metall tarkibining, pichoq yasash usuli va bezaklarining o'zgarib, taraqqiy eta borganini ayon qiladi.

VII—IX asrlarda to'qimachilik taraqqiy etgan, ip, ipak matolardan tashqari qimmatbaho parchalar ham ishlab chiqarilgan. O'simlik va handasaviy naqshbezaklarga boy, jonzotlar tasviri tushirilgan «zandonachi» matosi bizgacha saqlanib kelgan.

V—X asrlarda sopol buyumlarning maxsus turi – ostadonlar tayyorlash urf bo'lgan. O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbeklar va tojiklar yashaydigan joylarda kulolchilik tarraqqiy etdi. Samarqand, Kitob, Shahrisabz, G'ijduvon, Xorazm, Toshkent, G'urumsaroy, Rishtonda sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari vujudga keldi. Bu markazlarda tayyorlangan kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, ko'rkam naqshlari bilan diqqatni tortadi. Ularni bezashda tasviriy mavzulardan keng foydalanilgan: ajdodlar, homiylar, shuningdek, daraxt va boshqa o'simliklar, qushlar o'yma, bo'rtma va boshqa usullarda ishlangan. Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish ko'ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg'ona (asosiy markazlari—Rishton, G'urumsaroy), Buxoro—Samarqand (asosiy markazlari—Samarqand, Urgut, G'ijduvon), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog' qishloqlari), Toshkent. Farg'ona kulollari sopol idishlarga oq, ko'k, qizil, yashil, sariq va hokazo tusda sir beradilar. Andijonda sirni ko'proq oq tusda beradilar. Idishga tag sir berilgandan so'ng uning ustidan rangli bo'yoq bilan turlicha, xollar, gullar chiziladi. Farg'ona vodiysi kulollari, ayniqsa mashhur rishtonlik ustalar ijod etgan naqsh namunalari 300 ga yaqin. Shuning ichida naqsh elementlarini ifodalovchi quyidagi so'zlarni uchramiz: anorgul, qalampir, tole, qanoti murg', qo'chqaroq (qo'chqor shohi), guli afishi, sada, gultojxo'roz, mexroba, zar pechak, bulbulzor, tumorcha, oshpichoq, optovagul, choydosh, chetangul, tuyabo'yin, guzaka, kaptar qanot, oshiqcha, rishtagul, pechak o't, sanami, pista, barg, zanjira, osma gul, koshin gul, chor yaproq, guli gajak. Sopol idishlarga tushirilgan naqshlar bir-birini to'ldiradi, mukammallashtiradi va o'ziga xos ko'rk bag'ishlaydi.

Farg'ona (Rishton)da kulolchilik an'anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash yo'lga qo'yildi. G'urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir, bu maktab vakili usta M.Tuopov sir tayyorlashdan tortib to naqsh chizishgacha bo'lgan barcha ishlarni faqat an'anaviy usulda bajargan, bu an'anani uning shogirdi V.Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda, yangi ijodiy yangiliklar yaratishda izlanmoqda. Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o'zigagina xos xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

VI—X asrlardan shisha idishlarga ehtiyojlar kuchaydi, shuning uchun ular ko'plab tayyorlangan; ko'zacha qadahlar, siyohdon, turli idishlar rangli (qizil, olcharang, sariq, ko'k, yashil), rangsiz shishalardan yasilib, bo'rtma, bosma, chizma, qadama usullarda bezatilgan. XII asrda me'morlikda o'yma terrakota, sirlangan g'ishtdan foydalanildi, mahobatli binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplandi, bino ichi ganch o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan bezatildi. XII asrdan koshindan nozik yupqa idishlar ishlashga kirishilgan. O'rta asr uslubida yaratilgan badiiy metall buyumlar ham e'tiborni tortadi. Bu idishlar (ko'za, qozoncha, shamdon va boshqa) bronzadan yasilib, hoshiya va turunj naqshlar bilan bezatilgan, yozuvlar uslublashtirilgan o'simliksimon naqshlar, ba'zan qush va hayvonlar tasvirlari bilan ham aralashtirilgan, chizma, kandakori va boshqa usullarda ishlov berilgan.

TARIX

XIII—XIV asrlarda, mo'g'ullar istilosi va undan keyingi davrlarda badiiy sopol idishlar mayda o'simlik va chizma naqshlar bilan bezatilgan; yashil-qora va feruza-havorang bo'yoqlar oq angob ustiga tushirilgan, ustidan rangsiz yoki shaffof sir bilan qoplangan. Farg'ona naqqoshligida Rishton kulolchiligiga xos moviy bo'yoqlar ko'p ishlanib, unda asosan o'simlik dunyosi naqshlari yetakchilik qiladi. Farg'ona naqshi Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat.[8.27-b] Chunki aynan ularda mahalliy aholining «jannat bog'i» va kosmogonik diniy falsafa haqidagi tushunchalari o'zining ifodasini topgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda, Xorazmda, Farg'ona vodiysida ko'nchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Turli xil ko'n mahsulotlari: charm, xrom, amirkon va boshqalardan poyabzal, telpak, ustki kiyim, ot-ulov abzallari, qayish, qin va h. buyumlar tayyorlangan. Teriga badiiy ishlov berish an'analari shakllangan. Buyumlar usti muraqqa usulida rangli charm, baxmal parchalari qo'yib, popuklar, qo'ng'iroqlar qo'shib tikilib, buyumga badiiy tus berilgan. Andijon va Qo'qon terini qayta ishlash va undan poyafzal tayyorlashning asosiy markazlaridan bo'lgan. Bu yerdagi ko'nchilik korxonalarida poyafzal bilan birgalikda kiyim-kechaklar, bosh kiyimlar, suv va qimiz saqlash uchun teridan qilingan qop-meshlar ishlab chiqarilgan.[9.53-b] Ayniqsa, qog'oz-hujjatlar solib yuriladigan juzdon (juzgirlar)ga turunj naqshlari bosma usulda tushirilib, hoshiyasi nozik o'simliksimon naqshlar bilan orolangan. Yozma manbalarga ko'ra, XVIII asr zargarlari oltin va kumushga qimmatbaho toshlar qadab toj va kamarlar, qurollar, ot abzallari, zeb-ziynat buyumlari ishlagan. Ya'ni VIII — IX asrlar zargarlari qadimiy zargarlik san'ati an'alarini davom ettirishgan. Zargarlik buyumlari qadimiy an'anaviy usullarda ishlansa-da, shakl jihatidan ancha soddalashtirildi. XI asr zargarlari zumrad, durru marvarid, yoqut, feruza, aqiq, sadaf kabi qimmatbaho toshlarni oltin va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlari yasashgan. Ularga bolg'alab (zarb berib), hallab o'yib, bo'rttirib naqsh yasab, bosib (siqib), qoliplash usullarida joziba bag'ishlangan. Farg'ona zargarlari afg'oncha uzuk, rumcha uzuk, hoji uzuk kabi uzuk, ziraklar turlarini yaratgan.[10.49-b] . Farg'onalik zargarlar mahsuloti chet ellik ixlosmandlarning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan.[11.73-b] XX asr boshlarida xalqimiz an'anaviy hunarmandchilik san'ati o'z qadimiy an'alarini davom ettirib, yangi zamonaviy mavzularni ham qamrab olgan holda rivojlandi. Badiiy hunarmandlikning bir qancha sohalarini tiklandi. Farg'ona an'anaviy to'qimachilik san'ati namunalarini, abr gulli ipak matolar e'tibor qozondi, Buxoro yirik gulli matolaridan tayyorlangan bino ichini bezaydigan badiiy buyumlar, deraza-eshik pardalari, choyshablar, dasturxonlar xaridorgir bo'ldi. An'anaviy chitgarlik, gilamchilik va palos to'qish ustalari mavzuli tasvirlar berish, kishilar siymosini yaratish yo'lida sa'y-harakat ko'rsatdilar. Kandakori buyumlarga ham tasviriy bezaklar berish rasm bo'ldi. I ming yillikka oid Farg'onada topilgan marosim qozoni kandakorlikda «hayvonot uslubi» mavjudligidan darak beradi. Farg'ona kandakorlik ustalari (Abdufozil Otavlayev, Mulla Siddiq Otavlaev va boshqalar) buyumlarni bezashda ko'rkam bog'lar, chamanzorlarni eslatuvchi nafis naqshlarni sayoz, tor zaminli qilib ishlaganlar, o'ziga xos tarzda pardozlaganlar, ba'zan buyumga me'moriy tasvirlar ham kiritilgan.

XIX asr an'analari asosida tikilgan Chust «tus» do'ppilari, Shahrisabz «iroqi»lari ko'pchilikka yoqqan. XX asrning 30-yillarida Farg'ona do'ppichiligida "Chust nusxa" do'ppi yaratilgan.[3.144-b] Qo'qon do'ppilari asosan, "piltado'zi" usulida tayyorlangan.[3.145-b] XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'onada xalq hunarmandchiligining asosiy sohalarini ko'nchilik sovunpazlik, sham ishlab chiqarish, to'qimachilik, poyabzal tayyorlash, kulolchilik, misgarlik, degrezlik, arava yasash, temirchilik, bo'yoq tayyorlash, gilamdo'zlik, duradgorlik bo'lgan.[12.134-b] XX asr boshlarida, zardo'zlikning o'ziga xos Buxoro, Samarqand, Farg'ona maktablari yaratilgan. Chiroyli qilib bezatilgan qimmatbaho matodan tikilgan zardo'zi sarpolar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan. Ota-bobolarimizdan meros bo'lgan bu kasb egalari zardan bezatilgan kamzul, chakmon, chalvir, belbog', salla, do'ppi, quloqi va poyabzal tikkanlar.

XX asrning 30-yillari o'rtalaridan sanoatda badiiy matolar ishlab chiqarishga kirishilgan. Toshkent to'qimachilik kombinati satin, chit, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda esa sun'iy va ipak matolari, 60-70-yillarda Marg'ilon «Atlas» birlashmasi, Namangan shoyi to'qish fabrikasi abr gulli ipak matolar ishlab chiqarilgan.

O'zbek hunarmandchiligida, ayniqsa, keyingi yillarda qayta tiklanib rivojlana boshlagan badiiy-amaliy san'at sohalaridan gilamdo'zlik uzoq tarixiy an'analarga ega. XVIII-XIX asrlarda Buxoro va Qo'qon xonliklarida gilam to'qish san'ati tez sur'atlar bilan rivojlandi.[3.175-b] Tadqiqotchilarning fikricha, O'zbekistonda asosan uch xil gilamdo'zlik maktablari ajralib turadi: Samarqand, Andijon, Xorazm. XX asrning 20-30-yillariga kelib vodiya gilamlar nafaqat dastgohlarda, balki gilamchilik korxonalarida to'qiy boshlangan. [3.179-b] Andijon gilamlari o'zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko'k ranglari va gullari bilan farq qiladi. Farg'onada to'q ko'k va geometrik naqshli, qisqa tukli, chetiga

alohida-alohida naqshlar ishlatilgan gilamlar to'qilgan. Farg'ona gilamdo'zlari mahsulotining asosiy qismi mahalliy iste'mol uchun ishlab chiqarilib, uning bir qismigina bozorlarga chiqarilgan.[11.82-b] Farg'ona gilamdo'zlari mahsulotining asosiy ustunligi uning arzonligida edi.[11.81-b]

An'anaviy hunarmandchilik san'ati XX asrning 80—90-yillarida quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandligini o'z ichiga olgan xalq an'anaviy hunarmandchilik san'ati; yengil (chinni buyumlar, badiiy matolar) va mahalliy (sopol, yog'och buyumlar, gilamchilik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalar) sanoatni o'z ichiga olgan badiiy sanoat; ko'rgazma, interyer va manzarali kulollik buyumlari, gobelen, shisha, chinni va zargarlik san'atida an'anaviy bo'lmagan yaratuvchi rassomlik ijodi bilan bog'liq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san'ati. Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida aravasozlik, beshik yasash, sarrojlilik, bo'yrachilik, etikdo'zlik, o'yinchoqlar ishlab chiqarish singari sohalar ham rivojlangan edi.[11.86-b] Mustaqillik an'anaviy hunarmandchilik san'atining barcha shakllari rivojiga mustahkam zamin yaratdi. O'zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiylashtirilgan korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalarini ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxonalar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1997-yil 31-mart) qaroridan so'ng yakka tartibda faoliyat olib boradigan milliy hunarmandlar barcha soliqlardan ozod etilgan bo'lib, o'z mahsulotlarini O'zbekiston hududida va boshqa xorijiy davlatlarda ham erkin sotish huquqiga ega bo'ldi.[14] Buning natijasida hozirgi kunda O'zbekistonda hunarmandchilikning unutilayotgan va unutilgan turlari ham qayta tiklanib, yanada rivojlanishiga zamin yaratildi. Xalq badiiy hunarmandchiligi namunalarini me'moriy yodgorliklar, ganch, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlikda, shuningdek, misgarlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, ipak va ip gazlamachiligi, zardo'zlik, kashtachilik va boshqa noyob san'at durdonalari darajasiga ko'tarilgan bu bebaho merosimiz O'zbekiston Amaliy San'at muzeyida saqlanib kelinmoqda.[13. 131-b]

XULOSA

Badiiy hunarmandchilik O'zbekistonda juda katta tarixga ega. Uning rang-barang yo'nalishlari va turlari ajdodlarimizning o'troq hayot tarziga o'tishi, shaharlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. O'zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to'qimachilik vujudga keldi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. Shuningdek, O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san'atlar maktablarining noyob an'alarini avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, akademik ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1997-yil 31-mart) qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va an'anaviy hunarmandchilik san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'alarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq an'anaviy hunarmandchilik san'atining yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro'zda o'tkaziladigan an'anaviy hunarmandchilik san'ati asarlari ko'rgazmasida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy hunarmandchilik san'atining hamma sohalarida professional rassom, haykaltaryoshlar o'rtasida hamkorlik mavjud. Badiiy hunarmandchilik san'atining shakllanishi, taraqqiyoti jarayonida badiiy uslublar almashinuvi san'atning boshqa turlari bilan bog'liq ravishda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1].Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston,1998. (Karimov I.A. On the way to spiritual growth. - Tashkent: Uzbekistan, 1998.)
- [2.].O'zbekiston nomodiy madaniy merosi. Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. ICHKAP, MOTXI 2017 (Intangible cultural heritage of Uzbekistan. National commission of the Republic of Uzbekistan on UNESCO affairs. ICHKAP, MOTXI 2017)
- [3.]. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma-Samarqand:SamDU. 2021. (Mamasoliyeva Sh.L. Right craftsmanship. Study guide-Samarkand: SamDU publication. 2021)
- [4.]. Nomodiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konvensiya. 2-modda.- Parij. 2003 (International Convention on the Protection of Intangible Cultural Heritage. Article 2.- Paris. 2003)

TARIX

[5]. Бентович И.Б. Керамика верхнего слоя Пенджикента VII-VIII в.в. н.э. МИА. Вып. 124, М.: 1964., Ахроров И. К. К истории появления поливной керамики в Средней Азии. ИМКУ, вып. 6. Т.: 1965., Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Т.: Фан. 2000., Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. Т.: Из-во народного наследия им. А.Кадыри, 2000., Исомиддинов М.Х., Яркулов А. Нахшаб хунармандчилик тарихи. Т.: "Yangi nashir". 2014.

Bentovich I.B. Pottery of the upper layer of Penjikent of the 7th-8th centuries. AD IV. Edition. 124, M.: 1964., Akhrorov I.K. On the history of the emergence of glazed pottery in Central Asia. IMCU, Vol. 6. T.: 1965., Sulaymanov R.Kh. Like old. T: Science. 2000., Isamididinov M.Kh., Khasanov M.Kh. History of pottery production in Nahob in ancient and medieval times. T.: Because of the population. A. Kadiri, 2000., Isomididinov M.Kh., Yorkulov A. History of patterned crafts. T.: "New Edition". 2014 year.

[6] Холмуратов.Б. Пичоқ рамзи// Мозийдан садо. 2013. 4-сон. .Ahmedova O. "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" Toshkent-2018. Mamasoliyeva Sh.L. Haq xunarmandchiligi. O'quv qo'llanma-Samarqand:SamDU . 2021. (Kholmuratov.B. The symbol of the knife// Sound from Moses. 2013. Issue 4.) (Ahmedova O. "Intangible cultural heritage of Uzbekistan" Tashkent-2018.) (Mamasoliyeva Sh.L. Right craftsmanship. Study guide-Samarkand: SamDU publication. 2021)

[7]. Холмуратов.Б. Пичоқ рамзи// Мозийдан садо. 2013. 4-сон. (Kholmuratov.B. The symbol of the knife// Sound from Moses. 2013. Issue 4.)

[8.] Mamasoliyeva Sh.L. Haq xunarmandchiligi. O'quv qo'llanma-Samarqand:SamDU nashri. 2021. (Mamasoliyeva Sh.L. Right craftsmanship. Study guide-Samarkand: SamDU publication. 2021)

[9].Правительственный вестник. 1898. Туркестанский сборник. Т.512. (Government Gazette. 1898. Turkestan collection. T.512.)

[10.] Ahmedova O. "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" Toshkent-2018. (Ahmedova O. "Intangible cultural heritage of Uzbekistan" Tashkent-2018.)

[11]. Жабборов М.Р. Арслонзода Р.А. Фарғона Россия империяси ҳукмронлиги даврида. "Наврўз".Т-2019. (Jabborov M.R. Arslonzoda R.A. Ferghana during the rule of the Russian Empire. "Navroz". T-2019.)

[12].Ўзбекистон Республикаси марказий давлат архиви. И-27ф. 1-р. 173-й. (Central dawlat archive of the Republic of Uzbekistan. I-27f. 1-r. 173)

[13.] O'zbekistonning moddiy va nomoddiy merosi atamalari. "Fan" nashriyoti. Toshkent-2019-y. (Terms of tangible and intangible heritage of Uzbekistan. "Fan" publishing house. Tashkent-2019.)

[14] <http://lex.uz//ru/docs/-168968 PF-1741-son.31.03.1997>. "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida". (<http://lex.uz//ru/docs/-168968 PF-1741-son.31.03.1997>. "On measures of state support for the further development of folk arts and crafts".)